



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "14" oktabr

№ 36

“Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror 2023- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov